

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

QARSHIBOYEV HUSAN SHAMSIDDIN O'G'LI

**SUG'ORILADIGAN TUPROQLAR DEGRADATSIYASINI GAT
TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA BAHOLASH
(Buxoro tumani misolida)**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по биологических наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
biological sciences**

Qarshiboyev Husan Shamsiddin o‘g‘li

Sug‘oriladigan tuproqlar degradatsiyasini GAT texnologiyasi yordamida baholash (Buxoro tumani misolida) 3

Каршибоев Хусан Шамсиддин угли

Оценка деградации орошаемых почв с помощью ГИС технологий (на примере Бухарского раёна) 21

Karshiboev Khusan Shamsiddin ugli

Assessment of irrigated soil degradation using GAT technology (on the example of Bukhara district) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

QARSHIBOYEV HUSAN SHAMSIDDIN O'G'LI

**SUG'ORILADIGAN TUPROQLAR DEGRADATSIYASINI GAT
TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA BAHOLASH
(Buxoro tumani misolida)**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PHD/B1067 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining veb-sahifasida (<http://www.soil.uz>) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobomurodov Shuhrat Mexribonovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Artikova Xafiza Tuymuradovna
biologiya fanlari doktori, professor

Qodirova Dilrabo Abdukarimovna
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «19» noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi, 3-uy. E-mail: info@soill.uz)

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (89- raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi 3-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «04» noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «04» noyabrdagi 10-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.T.Xoliqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashga
raislik qiluvchi, q.x.f.d. professor

J.M.Ko‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda «dunyoda qurgʻoqchilik, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va choʻllanish kabi muammolar insoniyatni tashvishga solmoqda. BMTning 2023-yilgi maʼlumotlariga koʻra, dunyoda qariyb 2 milliard gektar (14,9 %) yer maydonlari qishloq xoʻjaligi aylanmasidan chiqib ketmoqda, shundan, haydaladigan yerlarning 40 foizdan ortiqrogʻi turli darajada degradatsiyaga uchragan»¹. Shuning uchun ham geoaxborot texnologiyalaridan foydalangan holda tuproqlarning degradatsiyasini monitoring qilish, baholash, tabiiy va antropogen omillarning taʼsirini oʻrganish orqali degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini saqlash va tiklash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyoda tuproq degradatsiyasining turlari va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, baholash hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish, shuningdek, ularni boshqarishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish, tejamkor va samarali axborot tizimlarini shakllantirish hamda tuproqlarni raqamli xaritalashga qaratilgan ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada GAT yordamida degradatsiyaga xavfli yerlarni tez va sifatli aniqlash, baholash, ularni uzoq muddatli bashoratlash va uni oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tuproqlar degradatsiyasi jarayonlarini aniqlash, oldini olish va unga qarshi kurashish, salbiy oqibatlarini bartaraf etishda, geoaxborot texnologiyalarini joriy etish boʻyicha keng qamrovli ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻzbekiston-2030» strategiyasida choʻllanish, qurgʻoqchilik, chang-qum boʻronlari va haroratning koʻtarilishi² ga qarshi chora sifatida jami 600 ming gektar yer maydonlarini oʻzlashtirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilishda ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar koʻrsatish tizimini takomillashtirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham respublikadagi sugʻoriladigan yerlarda ilmiy-innovatsion texnologiyalarni qoʻllash orqali qishloq xoʻjaligi maydonlarida vujudga kelayotgan choʻllanish va degradatsiya jarayonlarini kamaytirish, tuproq unumdorligini qayta tiklash, saqlash, muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, tuproq degradatsiyasini monitoring qilish ishlarini takomillashtirish, degradatsiyaga moyil hududlar maydonlarini geoaxborot tizimi texnologiyalari asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-sonli «Qishloq xoʻjaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari

¹ <https://www.thegef.org/topics/land-degradation>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «Oʻzbekiston - 2030 strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-158-son Farmoni

to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'oriladigan tuproqlarning xossususiyatlarini, jumladan, unda sodir bo'layotgan jarayonlarni aniqlash, salbiy holatlarini oldini olish, GAT asosida xaritalash, baholash, ma'lumotlar bazasini shakllantirish orqali har bir ko'rsatkich bo'yicha tuproq degradatsiyasini bartaraf etishga qaratilgan izlanishlar chet ellik olimlardan I.Charif, E.Kolintziki, T.K.Alexandridis, W.Steffen, G.Giuliani, A.I.Zvoleff, M.Gonzalez-Roglich, M.Noon, F.Jimenez, T.A.Trifonova, N.V.Mishchenko, P.S.Shutov, P.Manna, D.Sanchez, Casanova, I.C.Janer, F.Jimenez, Y.Hu, V.D.Slavko, O.V.Andreeva, S.Kust, N.T.Muraveva, I.I.Karmanov, O.A.Makarov hamda respublikamiz olimlaridan N.V.Kimberg, M.U.Umarov, O.K.Komilov, X.M.Maqsudov, X.H.Tursunov, U.T.Tojiev, R.Q.Qo'ziev, L.A.Gafurova, M.M.Toshqo'ziev, R.Kurvantaev, A.U.Axmedov, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abduraxmonov, A.Qodirova, H.T.Artiqova, G.T.Djalilova, S.Nazarova, Z.A.Bahodirov, V.Sherimbetov, X.Rasulov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, sug'oriladigan maydonlarda sodir bo'layotgan degradatsiya jarayonlarini oldini olishga, baholashga hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida Birlashgan Millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan 04/2021-sonli «GAT, COLLECT EARTH va agrometeorologik ma'lumotlar asosida yer degradatsiyasi xaritasini ishlab chiqish» (2021-2022 yy.) mavzusidagi xalqaro loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarining degradatsiya holatini GAT texnologiyasida baholash va unda kechayotgan salbiy holatlarning yechimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tadqiqot hududida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning morfologik belgilari, mexanik tarkibi, agrokimyoviy xossalari hamda sho'rlanish darajasini aniqlash;

o'rganilyotgan sug'oriladigan tuproqlardagi degradatsiya jarayonlarini geoaxborot tizimi texnologiyalari yordamida tahlil qilish;

zamonaviy uslublarda tahlil qilish algoritmlarini tuproq degradatsiya holatini ko'rsatuvchi indikatorlar asosida ishlab chiqish;

tuproq sifati indeksleri (SQI), ekologik sifat yo'qotilishi ko'rsatkichi va Trends.Earth uslublari asosida tadqiqot hududi tuproqlarini degradatsiya holatini baholash;

GAT yordamida tuproq degradatsiyasi holatini aniqlash, baholash va raqamli xarita va xaritagrammalarini ishlab chiqish;

degradatsiya jarayonlarini oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan yechimlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyati Buxoro tumani sug'oriladigan o'tloqi allyuvial, o'tloqi-botqoq, o'tloqi-cho'l tuproqlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sug'oriladigan tuproqlarning degradatsiya indikatorlari, degumifikatsiya, oziqa moddalari, sho'rlanishi hamda geoaxborot tizimlari raqamli xaritalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo'yicha amalga oshirilgan: tuproqning kimyoviy tahlillari «Руководство по химическому анализу почв» qo'llanmasi bo'yicha, dala, kameral va kartografik ishlar «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma»si, tuproq sifati indeklari (SQI), O.A.Makarov uslublari bo'yicha, Geoaxborot tizimi asosidagi tahlillar ESRI kompaniyasining ArcGIS 10. dasturining interpolyatsiya usulida, Geostatistical Analyst, Areal Sampling modullari hamda QGIS dasturining Trends.Earth uslublari bo'yicha, olingan natijalarning matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo'llanmasi asosida hamda dispersion-statistik tahlillari «Microsoft Excel» dasturida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tuproqning ekologik sifat yo'qotilishi ko'rsatkichi uslubi bo'yicha qo'llanilgan tasnif hudud tuproqlarining degradatsiyasi holatiga mos ravishda takomillashtirilgan;

sug'oriladigan tuproqlarning degradatsiya darajasi Soil Quality Index (SQI), Ecological Quality Loss Index (EQLI) hamda Trends.Earth usullari yordamida kompleks baholanib, degradatsiya darajasi o'rtacha 38,5% ekani aniqlangan;

sug'oriladigan tuproqlar degradatsiyasi jarayonlarini baholashda geoaxborot tizimi texnologiyalarining tezkorligi, aniqligi va qamrab olish kengligi bo'yicha afzalligining 25% yuqoriligi asoslangan;

tuproq sifati indeklari (SQI) va Trends.Earth usullarini uyg'un qo'llash asosida tuproq degradatsiyasiga qarshi choralarni ishlab chiqish orqali yer resurslaridan samaraliy boshqarilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

geoaxborot tizimi texnologiyalari yordamida sug'oriladigan tuproqlar degradatsiya jarayonlarini tahlil qilish algoritmlari ishlab chiqilgan;

Trends.Earth uslubi yordamida 1:10000 masshtabli sug'oriladigan tuproqlar degradatsiyasini baholash xaritalari ishlab chiqilgan;

Buxoro tumanida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial, o'tloqi-botqoq, o'tloqi-cho'l tuproqlarini mexanik tarkibi, gumus, fosfor, kaliy miqdori, sho'rlanishi darajalarini aks ettiruvchi raqamli xarita va xaritagrammalari ishlab chiqilgan;

Buxoro tumani sug'oriladigan yerlarida kechayotgan degradatsiya jarayonlarini barqarorlashtirish, ekologik-meliorativ holatini yaxshilashga doir yechimlar ishlab chiqilgan;

Buxoro tumani «Chorbakir» massivi tuproqlarining hozirgi holatini tavsiflovchi ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining aniqligi dala, laboratoriya, kameral va sohada umumqabul qilingan tadqiqot usullaridan foydalanganligi, matematik-statistik tahlil qilinganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqotlarda dunyo miqyosida keng qo'llanilayotgan zamonaviy geoaxborot texnologiyalaridan foydalanilganligi, natijalarining respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan nufuzli xorijiy va respublika ilmiy jurnallar davriy nashrlarida chop etilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tuproq ekologik sifat yo'qotilishi ko'rsatkichi uslubi bo'yicha qo'llanilgan tasnif hudud tuproqlarining degradatsiya holatiga mos holda takomillashtirilganligi, tuproq sifati indeksleri (SQI), ekologik sifat yo'qotilishi ko'rsatkichi va Trends.Earth uslublari yordamida tadqiqot hududi sug'oriladigan tuproqlari degradatsiya holatini (o'rtacha 38,5%) baholanganligi va uslublar o'rtasidagi farqlanishlarning o'zaro taqqoslanganligi, tuproq degradatsiyasini tahlil qilishda geoaxborot tizimlarining qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, geoaxborot tizimi texnologiyalari yordamida sug'oriladigan tuproqlar degradatsiyasi jarayonlarini har bir indikatorlari bo'yicha tahlil qilish algoritmlarini ishlab chiqilganligi, tuproq degradatsiya indikatorlari bo'yicha 1:10000 masshtabli raqamli xaritalari va hudud tuproqlari holatini tavsiflovchi ma'lumotlar bazasini yaratilganligi, hududdagi degradatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini berishi, degradatsiya jarayonlarini oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'oriladigan tuproqlar degradatsiyasini GAT texnologiyalari yordamida baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Trends.Earth dasturida Buxoro tumani hududida degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan tuproqlarni baholash uchun SDG (15.3.1) ning 3 ta kichik ko'rsatkichi ma'lumotlaridan foydalanib, degradatsiya jarayonlarini ifodalovchi xaritalari Buxoro tumani qishloq xo'jaligi yerlarida amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 5-avgustdagi 05/05-02-601-son ma'lumotnomasi). Natijada, Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarida sodir bo'layotgan tuproq degradatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish, degradatsiya xavfini baholash, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproqlar holatini yaxshilash va muhofazalash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

Buxoro tumani «Chorbakir» massivining 2045,4 gektar sug'oriladigan yerlarining 1:10000 masshtabli tuproqlar mexanik tarkibi, gumus, oziqa miqdori va sho'rlanish darajasi bo'yicha xarita va xaritagrammalari Buxoro tumani qishloq xo'jaligi bo'limi va fermer xo'jaligi amaliyotiga joriy etilgan. (O'zbekiston

Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 5-avgustdagi 05/05-02-601-son ma'lumotnomasi) Natijada, organik va mineral o'g'itlarning maqbul me'yorda qo'llash, sho'r yuvish tadbirlarini samarali o'tkazish, tuproq degradatsiyasini oldini olishga qaratilgan agrotadbirlarni belgashga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, 1 ta dasturiy ta'minot guvohnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, uslublari va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarni nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlarining hozirgi holati**» deb nomlangan birinchi bobi tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ikki qismga bo'lingan. Mazkur bobda mavzu doirasida xorijiy va respublikamizda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari tahlili keltirilgan. Shuningdek, sug'oriladigan tuproqlarda degradatsiya jarayonlari, uning shakllanishi va tarqalish qonuniyatlari, tuproq xossalari va bo'lgan ta'siri, uning paydo bo'lishida relyef, o'simlik qoplami va boshqa omillarning roli bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobda Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarida sodir bo'layotgan degradatsiya oqibatlarini, ularning salbiy tomonlari qayd qilingan. Shuningdek, tadqiqot obyekti sug'oriladigan tuproqlarining mexanik tarkibi, agrokimyoviy va boshqa xossalari hamda sho'rlanish jarayonlari, tuproqlarni degradatsiya holatlarini baholash bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari keltirilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, tabiiy va antropogen omillar ta'sirida sug'oriladigan tuproqlarda sodir bo'layotgan degradatsiya jarayonlarini baholashda geoaxborot tizimi texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning «**Buxoro vohasi tuproqlarining hosil bo'lish jarayonida tabiiy va antropogen omillarni ta'siri, tadqiqot obyekti va uslublari**» deb

nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan joyning geologik, geomorfologik, iqlim sharoitlari, o'simliklar va hayvonot dunyosi, inson omilining ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro viloyati tabiiy-geografik joylashishi jihatdan Zarafshoning quyi oqimiga kiradi va u asosan cho'l va yarim cho'l mintaqasida joylashgan bo'lib, o'ziga xos 3 ta yirik geomorfologik vohaga bo'linadi: Navoiy-Konimex, Buxoro va Qorako'l, relyefi to'liqsimon tekislik. Buxoro tekisligi sharqdan g'arb va shimol tomon pasayib boradi. Buxoro tumani Buxoro vohasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, mezozoy va kaynozoy eralari davrlardagi asosan cho'kindi jinslarining qalin qatlamlaridan iborat. Shu qatlamlar ustida asosan to'rtlamchi (antropogen) davr yotqiziqlari tuproq paydo qiluvchi ona jinslar asosan shamol va denudatsiya jarayonlari natijasida to'plangan qumlar, lyoss va lyossimon qumoqlar va allyuvial yotqiziqlardan iborat bo'lib, tuproq xossa-xususiyatlari sizot suvlari sathiga bog'liq. Iqlimi keskin kontinental, yozi juda issiq va quruq, qishi mo'tadil va qisqa bo'lib, madaniy va tabiiy o'simliklar o'sadi. Tuproqlarning morfologik va agrokimyoviy holatini o'zgarishida tabiiy va antropogen omillar ta'siri kuzatildi.

Tadqiqotlar Buxoro viloyati Buxoro tumani «Chorbakir» massivida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial, o'tloqi-botqoq va o'tloqi-cho'l tuproqlar sharoitida olib borildi.

Tadqiqotlar dala, laboratoriya, kameral va kartografik bosqichlarida olib borilgan bo'lib, unda umumqabul qilingan standart uslublardan foydalanilgan. Olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo'llanmasi, geoaxborot tizimi asosidagi fazoviy tahlillar ArcGIS kompaniyasining 10.8.1 dasturidan foydalanilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududining tuproq qoplamlari tavsifi**» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilgan tabiiy va antropogen omillar ta'sirida shakllangan sug'oriladigan tuproqlarning morfologik belgilari, mexanik tarkibi, agrokimyoviy xossalari va sho'rlanish darajalari asosida tuproqlarning meliorativ holatiga oid ma'lumotlar yoritilgan.

«*Tuproqlarning morfologik belgilari*» deb nomlangan paragrafda tadqiqot hududi sug'oriladigan tuproqlarining asosiy xossa-xususiyatlari, ularda joylashtirilgan asosiy kesmalarining morfologik belgilari hamda morfogenetik ko'rsatkichlariga doir izlanishlar natijalari keltirilgan.


Buxoro tumanining quyi qismi tuproqlarida turli davrlarda sug'orish ishlarining olib borilishi natijasida tuproqlarning genetik va morfologik xususiyatlari ma'lum darajada o'zgargan, bu holat ularning meliorativ hamda ekologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tuman hududida asosan o'tloqi allyuvial tuproqlar va ularning sug'orish ta'sirida o'zgargan tuproq tipchalari keng tarqalgan bo'lib, hududda tarqalgan sug'oriladigan tuproqlari ko'p yillik sug'orish va melioratsiya jarayonlari ta'sirida gumusli qatlam qalinligi, sho'rlanish darajasi hamda morfogenetik xossalari bo'yicha sezilarli farqlanadi.

«Chorbakir» massivi sug'oriladigan tuproqlarining haydov qatlamlari asosan og'ir, o'rta va yengil qumoqli mexanik tarkibga ega, tuproq profilining quyi qatlamlari tomon mexanik tarkibning yengillashishi kuzatiladi. Massiv hududi uchta

asosiy tuproq tiplaridan: oʻtloqi allyuvial (65 %), oʻtloqi-botqoq (16 %) va oʻtloqi-choʻl (20 %) iborat (1-rasm). Massivdagi jami 2045,4 ga sugʻoriladigan maydonlarning 5,2 foizini ogʻir qumoqlar (106,36 ga), 56,4 foizini oʻrta qumoqlar (1034,97ga), 22,4 foizini yengil qumoqlar (458,17 ga) va 16,0 foizini qumloqlar (445,90 ga) tashkil etadi va massivda asosan oʻrta va yengil qumoqli tuproqlar keng tarqalgan (2-rasm).



1-rasm. Chorbakir massivi sugʻoriladigan tuproqlarini tarqalishi, foiz hisobida




2-rasm. Chorbakir massivi tuproqlarining mexanik tarkibi, foiz hisobida

Mazkur sugʻoriladigan tuproqlarni tarkibidagi gumus va oziqa elementlarini aniqlash boʻyicha bajarilgan kimyoviy tahlil natijalariga koʻra, oʻtloqi allyuvial tuproqlar profilida gumusning miqdori 0,289-0,860%, umumiy azot 0,040-0,088%, uglerodni azotga boʻlgan nisbati (C:N) 5,0-7,2 oraligʻida tebranib, harakatchan fosfor 8,89-23,61 mg/kg, almashinuvchi kaliy 57-132 mg/kg ni tashkil etadi. Oʻtloqi-botqoq tuproqlaridagi gumus miqdori 0,312-0,904%, umumiy azot 0,034-0,058%, uglerodni azotga boʻlgan nisbati 5,9-7,0 koʻrsatkichlarida kuzatilib, harakatchan fosfor 9,23-13,79 mg/kg ni, almashinuvchi kaliy 98-232 mg/kg miqdorlarida qayd qilindi. Oʻtloqi - choʻl tuproqlarida gumus miqdori 0,302-0,558%, ni umumiy azot 0,011-0,042% ni, uglerodni azotga boʻlgan nisbati (C:N) 6,2-8,3, harakatchan fosfor 10,18-20,04 mg/kg ni, almashinuvchi kaliy (K_2O) 51-223 mg/kg ni tashkil etib, hududning sugʻoriladigan tuproqlarining tip va tipchalariga bogʻliq holda, haydov osti va quyi qatlamlar tomon ularning miqdorini oʻzgarib turishi kuzatildi (3,4,5-rasmlar).


Hudud tuproqlarining shoʻrlanish darajasi turli koʻrsatkichlarda ifodalanib, tuproq profilini mexanik tarkibi, sizot suvlari va undagi suv-tuz eritmalarining kapillyar koʻtarilishi va tuzlarning miqdori hamda sifat tarkibi bilan uzviy bogʻliq ekanligi kuzatildi.

Sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial tuproqlarda quruq qoldiqning miqdori 0,212-0,412% ni, shundan, xlor ioni 0,011-0,025%, sulfatlar 0,035-0,201 foizni tashkil etadi. Shoʻrlanish tipi sulfatli, asosan kuchsiz shoʻrlangan. Sugʻoriladigan oʻtloqi-botqoq tuproqlarda quruq qoldiq 0,146-0,423% ni, shundan, xlor ioni 0,007-0,033% ni, sulfatlar 0,036-0,174% ni tashkil etadi, shoʻrlanish tipiga xlorid-sulfatli va qisman sulfatli, asosan, kuchsiz shoʻrlangan, quyi qatlamlar oʻrtacha shoʻrlangan. Sugʻoriladigan oʻtloqi-choʻl tuproqlarda quruq qoldiq 0,102-700% ni, shundan, xlor ioni 0,007-0,056% ni, sulfatlar 0,031-0,361%ni tashkil etadi, shoʻrlanish tipi xlorid-sulfatli, asosan, kuchsiz, quyi qatlamlar oʻrtacha shoʻrlangan tuproqlar guruhini


tashkil etadi. Massivda tarqalgan sugʻoriladigan tuproqlarining 76,7 foizi kuchsiz, 18,6 foizi oʻrtacha, 2,3 foizi kuchli, 2,4 foizi juda kuchli shoʻrlangan.



3-rasm. Tayanch massivi tuproqlarining gumus bilan taʼminlanganlik darajasi, foiz hisobida



4-rasm. Tayanch massivi tuproqlarining P₂O₅ bilan taʼminlanganlik darajasi, foiz hisobida



5-rasm. Tayanch massiv tuproqlarining K₂O bilan taʼminlanganlik darajasi, foiz hisobida

Dissertatsiyaning «**Geoaxborot tizimi texnologiyalaridan foydalangan holda tuproq degradatsiyasini baholash**» deb nomlangan toʻrtinchi bob uch qismdan iborat boʻlib, unda tadqiqot hududi tuproqlarida kechayotgan degradatsiya jarayonlari, ularni kelib chiqish sabablari va tarqalishi, degradatsiya jarayonlarini turli uslublarda baholash usullari, ekologik sifat yoʻqotilishi koʻrsatkichi boʻyicha mavjud tasnif asosida tanlab olingan hudud tuproqlarining degradatsiya holatiga koʻra, takomillashtirilgan tasnifda va tuproq sifati indeklari (Soil Quality Index) koʻrsatkichlari hamda Trend Earth yordamida tuproq degradatsiya holatini baholash natijalari bayon etilgan. Shuningdek, GAT texnologiyalarini qoʻllagan holda tuproqlarining degradatsiya jarayonlarini turli uslub maʼlumotlari asosida hudud sugʻoriladigan tuproqlarning degradatsiyasi xaritalari toʻgʻrisidagi tadqiqot natijalari keltirilgan.

«*Tadqiqot hududi tuproqlarida kechayotgan degradatsiya jarayonlarini tahlili*» deb nomlangan paragrafida tadqiqot hududi tuproqlarida tabiiy va antropogen omillar taʼsirida turli xil degradatsiya jarayonlari mavjud boʻlib, sugʻoriladigan oʻtloqi-allyuvial va oʻtloqi-botqoq tuproqlar tarqalgan maydonlarda notoʻgʻri meliorativ tadbirlar qoʻllash, yuqori joylashgan sizot suvlarining taʼsiri va ikkilamchi shoʻrlanish natijasida tuproqlarning meliorativ holati yomonlashgan. Oʻtloqi-choʻl tuproqlarida shamol eroziyasi jarayonlari ham faol boʻlib, bu tuproqning ustki unumdor qatlamining yoʻqolishiga olib kelmoqda. Degradatsiyaga uchragan tuproqlarda gumus miqdori kamayib, strukturasi buzilgan, kimyoviy xossalari salbiy oʻzgarishlar kuzatilgan.

Shu bobning «*Degradatsiya jarayonlarini turli uslublarda baholash*» deb nomlangan paragrafida tadqiqotlar davomida degradatsiya jarayonlarini tahlil qilishda yangi, muqobil mos, toʻgʻri keladigan koʻrsatkichlarini izlash muhim ahamiyatga ega. Ularning dinamikasini turli darajadagi (milliydan mahalliygacha) zamonaviy usullar va ishonchli matematik va statistik formulalar yordamida aniqlash mumkin. Yangi uslublar yordamida tuproq degradatsiyasi tahlil qilindi. Bunda, O.A.Makarov usulida tuproq indikatorlarini hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlariga qarab, hududda kechayotgan degradatsiya holatini aniqlash boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Tuproqlar ekologik sifatini yo‘qotilishini hisoblash formulasi bo‘yicha ESYM komponentlari orqali aniqlandi:

$$ESYM = D_x + \sum_{i=1}^n \frac{D_x}{\sum_{i=1}^n (QD_x) + n}$$

ESYM — tuproqning ekologik sifatini yomonlashishining miqdoriy ko‘rsatkichi;

D_x — tuproq sifatini belgilovchi dominant xususiyat;

QD_x — tuproq sifatini belgilovchi qo‘shimcha dominant xususiyat;

n – qo‘shimcha tuproq xususiyatlari soni.

Shu bilan birga, dominant va qo‘shimcha ko‘rsatkichlarning qiymatini baholash davomida belgilangan ballga mos keladigan, o‘rta nuqtasi atrof-muhitni muhofaza qilish tizimining ekologik sifatini yo‘qotish qiymatlari shartli nol — 0,5; past — 1,5; o‘rtacha — 2,5; yuqori — 3,5; halokatli — 4,5.-5,5 deb olindi. Tadqiqotlar olib borilgan hudud sug‘oriladigan tuproqlarining tuproq indikatorlari bo‘yicha mos takomillashtirilgan tasnifi asosida degradatsiya darajalariga ajratib chiqildi. Ushbu degradatsiya indikatorlari uchun quyidagi 1-jadval asosida baholash mezonini ishlab chiqildi.

1-jadvalda

Sug‘oriladigan tuproqlarning tuproq indikatorlari bo‘yicha degradatsiya holatiga ko‘ra mos takomillashtirilgan tasnifi

Ko‘rsatkichlar nomi va o‘lchov birliklari	Degradatsiyaga uchramagan	Kam degradatsiyaga uchragan	O‘rtacha degradatsiyaga uchragan	Yuqori degradatsiyaga uchragan	Juda yuqori degradatsiyaga uchragan
	0,5	1,5	2,5	3,5	4,5-5,5
Fizik loy miqdori, %	30-45 45-60	20-30	10-20	5-10	0-5
Gumus,%	>2,0	1,5-2,0	1,0-1,5	0,5-1,0	<0,5
Harakatchan P_2O_5 , mg/kg	>60	45-60	30-45	15-30	<15
Almashinuvchi K_2O , mg/kg	>400	300-400	200-300	100-200	<100
Quruq qoldiq miqdori, %	<0,3	0,3-1,0	1,0-2,0	2,0-3,0	>3,0

Tadqiqot hududida tarqalgan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial, o‘tloqi-botqoq va o‘tloqi-cho‘l tuproqlari bo‘yicha sifat indeksi hisob-kitoblari natijasida, ularning degradatsiya holati baholandi. Bunda, A.O. Makarov usuli asosida tuproqning bir nechta asosiy ko‘rsatkichlari - mexanik tarkibi, gumus va oziqa elementlarining miqdori hamda sho‘rlanish darajasi integral tarzda hisoblandi va ularning fazoviy tarqalishini aks ettiruvchi raqamli xaritasi yaratildi. Xarita ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, hududning shimoliy va shimoliy-g‘arbiy qismi maydonlari kuchli degradatsiyaga uchragan, janubiy maydonlar esa nisbatan barqarorligi bilan ajralib turadi. Degradatsiya darajasi bo‘yicha sug‘oriladigan o‘tloqi-cho‘l tuproqlari yuqori, sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari yuqori va juda yuqori, sug‘oriladigan o‘tloqi-botqoq tuproqlari esa o‘rtacha degradatsiyalangan guruhlarga mansub ekanligi aniqlandi.

Tuproq sifat indeksleri (Soil Quality Index) saqlovchi tuproq degradatsiyalarini baholashda muhim ilmiy va amaliy afzalliklarga ega. Ular qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslarni boshqarishda tuproq holatini aniqlash, baholash va monitoring qilishda foydalaniladi. SQI tuproqning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mahsuldorligini oshirish uchun asosiy ko‘rsatkichlarni miqdoriy baholash imkonini beradi.

Ilmiy izlanishlar jarayonida tadqiqot hududidagi sug‘oriladigan tuproqlarda kechayotgan degradatsiya jarayonlarini aniqlash maqsadida tuproq sifati indeksleri (SQI) ko‘rsatkichlaridan foydalanildi. Bu asosda tuproq degradatsiyasi darajasi baholandi hamda har bir ko‘rsatkich uchun alohida sifat qiymati hisoblab chiqildi.

Tuproq sifati indeksini aniqlashda esa asosiy komponent sifatida ko‘rsatkichlarning minimal va maksimal darajalari inobatga olindi (2-jadval).

2-jadval

Tuproq kimyoviy ko‘rsatkichlarini baholash

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Laboratoriya tahlillari ko‘rsatkichlari	Minimal qiymati*	Maksimal qiymati*
Mexanik tarkib (fizik loy miqdori)	%	Laboratoriya tahlillari natijalari kiritiladi	5	80
Gumus	%		0,1	2
Harakatchan fosfor	mg/kg		1	60
Almashinuvchi kaliy	mg/kg		1	400
Sho‘rlanish- quruq qoldiq,%	%		0,1	4

Tuproq indikatorlarning har bir ko‘rsatkichi uchun alohida sifat indeksleri hisoblab chiqilgandan so‘ng, umumiy tuproq sifat indeksi hisoblab chiqiladi. Bunda quyida keltirilgan formuladan foydalaniladi (3-formula).

$$SQI = \left(\frac{\sum_{i=1}^n S_i}{n} \right)$$

Bunda,
 S – alohida olingan ko‘rsatkich uchun sifat indeksi
 n – tanlab olingan ko‘rsatkichlar soni.

Umumiy tuproq sifati indeksini hisoblash alohida ko‘rsatkichlar bo‘yicha indeksleri qo‘shish va tanlab olingan ko‘rsatkichlarning umumiy soniga bo‘lish orqali olib boriladi.


Tuproq sifatini baholash tuproq sifat indeksini 100 ga ko‘paytirish yo‘li bilan bajariladi. Tuproq sifatini baholash 100 ballik yopiq shkala bo‘yicha olib boriladi. Bunda tuproq sifati bahosi 5 ta guruhlariga ajratildi va tuproq sifati ball natijalari bo‘yicha degradatsiya gradatsiyalariga ajratib chiqildi, tuproq tiplari bo‘yicha baholandi hamda fazoviy tarqalishini aks ettiruvchi raqamli xaritasi yaratildi (2-rasm). Bunga ko‘ra, «Chorbakir» massivi sug‘oriladigan maydonlarida tuproq sifati hududiy jihatdan bir xil emasligi aniqlandi. Xarita ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, shimoliy-g‘arbiy hududlarda degradatsiya jarayonlari kuchli bo‘lib, janubiy maydonlarda degradatsiya darajasi nisbatan past, sug‘oriladigan o‘tloqi-cho‘l tuproqlari asosan “yomon” (21–40 ball) toifasiga mansub bo‘lib, ularda degradatsiya jarayonlari keng tarqalganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu holatning asosiy sabablari sifatida gumus va oziqa moddalar zaxiralarning kamligi, tuproq mexanik tarkibining qumoqliligi, sug‘orish rejimining noto‘g‘ri tashkil etilganligi hamda shamol eroziyasi ta’siri qayd etildi. Sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlar

asosan “o‘rtacha” 41–60 ball toifasiga mansub bo‘lib, ushbu tuproqlarda degradatsiya jarayonlarining nisbatan kamligi kuzatilib, bunga sabab gumusli va oziqa moddalar ko‘pligi bilan izohlanadi. Biroq ayrim maydonlarda antropogen omillar ta’sirida ikkilamchi sho‘rlanish belgilari qayd etildi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi-botqoq tuproqlari asosan “yomon” (21–40 ball) toifasiga mansub bo‘lib, ularda degradatsiya jarayonlari yil sayin kuchayib borayotgani kuzatildi. Bu salbiy holatning asosiy sabablari sifatida sizot suvlari sathining yuqoriligi, mineral va organik o‘g‘itlar me’yorlarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi hamda agrotexnika talablariga to‘liq rioya qilinmasligi qayd etildi.

Tuproq sifati guruhlari

Guruh raqami	Guruh nomi	Sifat bali
I	Juda yomon	0-20
II	Yomon	21-40
III	O‘rtacha	41-60
IV	Yaxshi	61-80
V	Juda yaxshi	81-100



2-rasm. «Chorbakir» massivi sug‘oriladigan tuproqlari degradatsiyasini baholash xaritasi (SQI uslubi asosida)

«Trends.Earth uslubi yordamida sug‘oriladigan tuproqlar degradatsiyasi jarayonlarini baholash» deb nomlangan paragrafda Buxoro viloyati Buxoro tumani tuproqlari degradatsiyasining 2018-2024-yillardagi o‘zgarish tendensiyasi xalqaro va milliy ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda «Trends.Earth» vositasi yordamida degradatsiya holatini baholash imkoniyatlari yoritib berilgan. Bunda, dastlab 3 ta subindikatorlar yordamida degradatsiya holati baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yerlar unumdorligi subindikator bo‘yicha quyidagi guruhlariga ajratildi va o‘rganilgan umumiy maydonga nisbatan umumiy yer maydoni 84962 gektarni tashkil qilib, umumiy maydonga nisbatan 65,04 % qismi turg‘un holatda, ya’ni o‘zgarmagan bo‘lib, janubiy-sharqiy qismi 26,5% yaxshilangan toifaga mansub, g‘arbiy-shimoliy qismi 8,3% degradatsiyaga uchraganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqotlar davomida Buxoro tumani Chorbakir massivi yerlari unumdorligi subindikator guruhlarining fazoviy tarqalishini aks ettiruvchi raqamli xaritalari va tuproqlari degradatsiyasi neytral balansini integral baholangan xaritasi yaratildi.

Tadqiqot hududida degradatsiyaga uchramagan yerlar 210,7 gektarni (10,3%) tashkil etib, SQI bo'yicha 231,1 gektar (11,3%), Makarov O.A. usuliga ko'ra esa 1309,1 gektar (64,0%) deb baholangan. Trends.Earth tizimi esa bunday yerlarni ancha past foizda baholagan bo'lib, kam degradatsiyaga uchragan yerlar 801,9 gektarni (39,2%) tashkil etgan bo'lsa, SQI natijalariga ko'ra 877,5 gektar (42,9%) ni tashkil qildi.

Tuproq degradatsiya holatini turli uslublarda tahlil qilish masofaviy monitoring tizimlaridan foydalanish, degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarning hozirgi holatini aniq baholash va ularning degradatsiyasiga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy va iqtisodiy afzalliklarga ega. Ushbu tizimlar real vaqtda aniq ma'lumotlarni qo'lga kiritish va yerlar degradatsiyasining hozirgi holatini har tomonlama baholash, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga zamin yaratdi.

